

2019 yil yanvar oyida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Hozirgi kunda kuchayib borayotgan global tendentsiyalar va taqdim etilayotgan xizmatlarning xilma-xilligi xizmatlar sohasini iqtisodiyotning mustaqil sektoriga, yani jamiyatimizni "qon aylanish tizimi" sifatida to'ldiruvchi sektorga aylantirdi. Xizmatlar sohasini muhim ahamiyatga ega bo'lgan iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari bilan taqqoslash mumkin va funktsional jihatdan u bozor iqtisodiyotini rivojlantirish uchun qulay muhit yaratadigan tarmoqlar va infratuzilma ob'ektlari kabi rol o'ynaydi.

Mazkur sektor xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek notijorat tashkilotlarini qamrab oladi.

2019 yil 1 fevral holatiga respublikamizda 7,2 mingta korxonalar va tashkilotlar xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatmoqda, bu faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida (11,5 mingta) 62,9 % ni tashkil etadi.

Ma'lumot uchun: 2018 yil 1 fevral holatiga xizmatlar sohasida 6,1 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida savdo sohasida – 31,4 %, yashash va ovqatlanish sohasida – 11,5 %, tashish va saqlash - 6,2%, axborot va aloqa – 1,7 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 3,4 % , boshqa turlarda - 45,8% korxonalar va tashkilotlar o'rin egallagan.

**2019 yil 1 fevral holatiga
xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning ularning umumiy sonidagi ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2019 yil 1 fevral holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibida eng yuqori ulushni savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi (32,0 %) tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 12,2 % ni tashkil etdi.


Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 6,6 % ga yetdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlari ko'rsatuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi 2,2 % ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash sohasida va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,2 % ni tashkil etdi.

2019 yil 1 fevral holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2019 yil yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 317,3 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 113,1 % ni tashkil etdi.

Agar, huddi shuningdek, o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilsa, moliyaviy xizmatlar hajmining 28,1 mlrd. so'mga, transport xizmatlari 6,2 mlrd. so'mga, savdo xizmatlari 14,5 mlrd. so'mga ko'payganligi kuzatiladi. Ko'rsatilgan umumiy xizmatlar hajmi 60,4 mlrd. so'mga oshdi .

Alohida xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm




2019 yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar – jami	317,3	113,1
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	16,0	95,3
moliyaviy xizmatlar	59,6	185,2
transport xizmatlari	56,4	104,2
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	47,3	101,4
yashash va ovqatlanish xizmatlari	13,3	100,4
savdo xizmatlari	109,6	102,7
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	6,7	101,3
ta'lim sohasidagi xizmatlar	7,9	105,0
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	3,1	117,9
ijara xizmatlari	7,1	124,3
kompyuterlar va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	5,7	103,8
shaxsiy xizmatlar	8,8	100,8
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	10,7	116,9
boshqa xizmatlar	12,4	94,6


Umumiy tarkibda savdo xizmatlari ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida 34,5 % ni tashkil etadi. Shu bilan birga, moliyaviy xizmatlar 18,8 %, transport xizmatlari 17,8 %, hamda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 5,0 % ulush bilan eng yuqori ulushlarni egallaydi.

2019 yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, %



Respublikamizda olib borilayotgan kredit siyosati bo'yicha islohotlarning davom ettirilishi moliyaviy xizmatlarning o'sishiga imkoniyat yaratdi. 2019 yil yanvar oyida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 185,2% ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori o'sish sur'atlari ijara xizmatlarida (124,3 %), sog'liqni saqlash sohasida (117,9 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (116,9 %) qayd etildi.

2019 yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Ma'lumot uchun: 2018 yil yanvar oyida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarning o'sishi 441,4 % ni, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari – 117,1 % ni moliyaviy xizmatlar – 110,5 % ni, ijara xizmatlari- 107,0 % ni, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarda - 106,1 % ni va ta'lim sohasida – 106,1 % ni tashkil etgan.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

2019 yil yanvar oyida savdo xizmatlari hajmi 109,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 34,5 % ni tashkil etdi.


O'tgan yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 14,5 mlrd. so'mga oshdi.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo xizmatlari bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, 2019 yil yanvar oyida uning ulushi 86,9 % ni tashkil etdi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 6,7 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda savdo xizmatlarining umumiy hajmida 6,4 % ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar oyida savdo xizmatlari tarkibi, %




- Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar
- Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlar (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)
- Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

2019 yil yanvar oyida moliyaviy xizmatlar hajmi 56,9 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 185,2 % ni tashkil etdi.

O'sish sur'atlarining keskin o'sishi sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar hajmining o'sishi, jumladan, pul-kredit sohasidagi vositachilik bo'yicha xizmatlar hajmining o'sishi bilan izohlanadi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibi, mlrd.so'm



O'zbekiston Respublikasi transportining samarali ishlashi modernizatsiyalash, innovatsion rivojlanish yo'llariga o'tish va milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi uchun sharoit yaratishda alohida o'rin tutadi.

Transport xizmatlar tarkibida quruqlikdagi transport xizmatlari va quvurlar orqali yetkazib berish bo'yicha xizmatlar (85,4%), Omborga joylashtirish xizmatlar va yordamchi transport xizmatlari (14,2%), Pochta va kurerlik xizmatlari (0,4%) ni tashkil etdi.


2019 yil yanvar oyida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 47,3 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2018 yil yanvar oyiga nisbatan ushbu xizmatlarning o'sishi

1,4 % ga oshdi.

Yo'lovchi tashish avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmida salmoqli qismini egallaydi. 2019 yil yanvar oyida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi 67,5 % ga yetdi.

Avtotransportda ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida yuk tashish xizmatlari ulushi 32,5% ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar oyida transport turlari bo'yicha transport xizmatlari tarkibi, %



Ta'lim tizimining rivojlanishi O'zbekistondagi eng muhim ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, avvalo, inson

ongi va fikrlashidagi ijobiy o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlaydi va uning ma'naviyatini yuksalishiga imkoniyat yaratadi.

2019 yil yanvar oyida ta'lim sohasida xizmatlar hajmi 7,9 mlrd. so'mga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 5,0 % ni tashkil etdi.



Ushbu davr mobaynida yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi 13,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. 2018 yil yanvariga nisbatan o'sish sur'ati 100,4 % ni tashkil etdi va hajmi 1,7 mlrd. so'mga oshdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ulushi 88,2 % bilan ustunlik qiladi. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 11,8 % ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar oyida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning tarkibi, %



2019 yil yanvar oyida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 328,4 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 111,3 % ni tashkil etdi.



Ma'lumki, xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholi uchun munosib turmush sifatini ta'minlash ko'rsatkichi hisoblanadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, past sifat va xizmatlarning etishmasligi, zamonaviy xizmat ko'rsatishning yo'qligi insonlarning yashashiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Aksincha, yuqori sifat va xizmatlarning turli xilligi odamlarning salomatligi va kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ishchilarning mehnat unumdorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini

kamaytiradi, bo'sh vaqtni ko'paytirishga yordam beradi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

Navoiy viloyati statistika boshqarmasi

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

71-230-84-37

79-223-63-31